



## FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 28-fevral

29-11-163-F/25

Farg‘ona tumani hokimligi

### **Tumandagi mavjud jome masjidlarida Tarobeh va Hayit namozlari o‘qiladigan vaqtlarda hududlarda xavfsizlikni ta‘minlash, jamoatchilik tartibini saqlash hamda avtotransport vositalar qatnovini vaqtinchalik cheklash to‘g‘risida**

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida barcha sohalarda bo‘lgani kabi diniy-ma‘rifiy hayotimizda ham katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Muqaddas dinimizning tinchlik, do‘stlik, bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalarini, islom sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning boy ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarni shu ruhda sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish borasida keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ushbu muborak oyning jamiyatimiz hayotida tinchlik-barqarorlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, xalqimizning diniy-ma‘naviy qadriyatlarini asrash va rivojlantirish borasidagi ahamiyatini hisobga olib uni har tomonlama munosib o‘tkazish bo‘yicha tumandagi mavjud jome masjidlarida Tarobeh va Hayit namozlarini o‘tkazishda ushbu hududlarda xavfsizlikni ta‘minlash, jamoat tartibini saqlash hamda avtotransportlar qatnovini cheklash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddasiga asosan,

1. Tuman Ichki ishlar bo‘limining 2025-yil 20-fevraldagi 35/11-387-sonli xati ma‘lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi Tarobeh namozlari o‘qiladigan jome masjidlarda 2025-yilning 1-mart kunidan soat 18:00 dan 23:00 gacha hamda Hayit namozi o‘qiladigan kuni soat 03:00 dan 09:00 gacha avtotransportlar harakatlari cheklansin.

Jumladan,

4R-148 “Navbahor – Oltiariq – Chimyon - Vodil” avtomobil yo‘lining 91 km da (*“Xo‘ja Axmad Vale” masjidi*);

4R-144 “Farg‘ona - Vodil - Xamzaobod” avtomobil yo‘lining 29 km da (*“Xazrat Ali” masjidi*);

4N-855 “Vodil - Qizilaskar” avtomobil yo‘lining 2 km da (**“Yo‘ldosh xoji” masjidi**);

4R-205 “Farg‘ona – Avval - Log‘on - Gulpiyon” avtomobil yo‘lining 20 km da (**“Ohun hoji” masjidi**);

4N-842 “O‘rikzor - Damko‘l - Avval - Chek” avtomobil yo‘lining 4 kmdan 150 metr chapgakirish qismida (**“Damko‘l” masjidi**);

4R-205 “Farg‘ona - Avval - Log‘on - Gulpiyon” avtomobil yo‘lining 16 km.dan 200 metr o‘nga kirish qismida (**“Hazrati Umar” masjidi**);

4R-205 “Farg‘ona – Avval - Log‘on - Gulpiyon” avtomobil yo‘lining 8 km.dan 200 metr o‘nga kirish qismida (**“Ermatboy” masjidi**);

4K-846 “Avval – Kaptarxona - Vodil” avtomobil yo‘lining 12 km da (**“Mulla Mirzajon” masjidi**);

4R-148 “Navbahor – Oltiariq – Chimyon - Vodil” avtomobil yo‘lining 72-73 km da (**“To‘raxon hoji” masjidi**);

4R - 148 “Navbahor - Oltiariq - Chimyon - Vodil” avtomobil yo‘lining 79 - 80 km da (**“Sirli” masjidi**);

4R - 148 “Navbahor - Oltiariq - Chimyon - Vodil” avtomobil yo‘lining 86 km da (**“Qalbi chin ota” masjidi**);

4K-849<sup>a</sup> “G‘alabaga kirish” avtomobil yo‘lining 0-1 km da (**“Abu Bakr Siddiq” masjidi**);

4N-852 “Xonqiz - Kurash - Bo‘rbaliq” avtomobil yo‘lining 4-5 km da, (**“Yunusxon Eshon” masjidi**);

4N-850<sup>a</sup> “Mindonga kirish” avtomobil yo‘lining 2-3 km da (**“Xo‘ja Abdullox” masjidi**);

4N-858 “Xalmiyon qishlog‘iga kirish” avtomobil yo‘lining 0-5 kmlari da (**“Huvaydo” masjidi**).

**3.** Farg‘ona tumani Ichki ishlar bo‘limi (J.Xasanov), Farg‘ona tuman YXPFTDK (A.Zikriyayev), tuman IIB YXXG, tuman Obodonlashtirish bo‘limlariga:

- tumandagi jome masjidlarda Tarobeh hamda Hayit namozlari o‘qish vaqtlarida avtotransport vositalari qatnovini to‘liq cheklash;
- cheklovlar o‘rnatiladigan 2 ta joyga nazorat postlari tashkil etish hamda blok postlar o‘rnatish;
- o‘rnatiladigan blok postlari zaruriy materiallar va cheklov yo‘l belgilari bilan ta’minlash;
- ushbu cheklovlar qo‘yilayotgan avtomobil yo‘llari Davlat ahamiyatiga ega ekanligini inobat olib, avtomobil yo‘llariga olib chiquvchi boshqa yo‘nalishni tanlash;
- avtomobil yo‘llarining o‘rnatilgan cheklovlarda avtomobillar qatnovini to‘liq cheklash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimligiga axborot berish vazifalari topshirilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilib borishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Farg‘ona tuman  
hokimi**



**INOMOV  
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**